

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI YANADA ISLOH QILISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Qayd etib o'tilsinki, respublikada Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning birinchi bosqichi umuman muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Kechiktirib bo'lmaydigan tez tibbiy yordam tizimi — Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi, viloyat markazlari va tuman markaziy shifoxonalarida ixtisoslashtirilgan bo'limlar tuzilgan bo'lib, ular aholiga tezkor bepul shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilishini ta'minlamoqda.

Kechiktirib bo'lmaydigan tez tibbiy yordam muassasalari zamonaviy tashxis va davolash uskunalari bilan jihozlanmoqda.

Shifokorlarning malakasi hamda zamonaviy tibbiy texnika bilan jihozlashni hisobga olgan holda kechiktirib bo'lmaydigan tez tibbiy yordam tizimi shifokorlari hamda tibbiyot xodimlarining mehnatini tashkil etish va moddiy rag'batlantirish tizimi muttasil takomillashtirib borilmoqda.

Aholiga, eng avvalo qishloq joylardagi aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimi isloh qilinmoqda. Respublikaning barcha tumanlarida zamonaviy tibbiy uskunalar va dori-darmonlar bilan ta'minlangan qishloq vrachlik punktlari tashkil etilmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, respublikada yuksak jahon talablari darajasidagi yuqori texnologiyali ixtisoslashtirilgan tibbiy markazlarni shakllantirish, Ilg'or tibbiy texnologiyalarni keng joriy etishning tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarini vujudga keltirish maqsadida:

1. Ilg'or chet el tajribasini hisobga olgan holda yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamga muhtoj bemorlarni qabul qiluvchi hamda zamonaviy tashxis va davolash tibbiy uskunalaridan foydalanib davolaydigan maxsus klinikalar va tibbiy markazlarni tashkil etish O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish ikkinchi bosqichining eng muhim vazifasi deb hisoblansin.

2. Belgilab qo'yilsinki, maxsus klinikalar va tibbiy markazlar, qoida tariqasida, quyidagi talablarga mos kelishi lozim:

yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z tibbiyot sohasida tan olingan hamda yuksak obro'-e'tibor qozongan shifokor-mutaxassislarga ega bo'lish;

yuqori texnologiyali tashxis va davolash tibbiy uskunalari bilan jihozlangan zamonaviy moddiy-texnika bazasiga ega bo'lish;

o'z tibbiy amaliyotida yuksak jahon talablariga mos keladigan davolash va tashxisning murakkab usullarini joriy etish hamda keng qo'llash.

Oldingi tahrirga qarang.

3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Moliya vazirligining tajriba tariqasida quyidagilarni tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin:

(3-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-oktabrdagi PF-5216-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2017-y., 06/17/5216/0187-son)

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Urologiya ilmiy markazi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot urologiya markazi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining akademik V. Vohidov nomidagi Jarrohlik ilmiy markazi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot jarrohlik markazi;

Toshkent shahridagi Toshkent viloyat ko'z mikroxirurgiyasi markazi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot ko'z mikroxirurgiyasi markazi;

Kardiologiya ilmiy-tadqiqot instituti va Toshkent shahridagi 15-shahar klinik shifoxonasi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot kardiologiya markazi.

(3-bandning ikkinchi — beshinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-oktabrdagi PF-5216-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2017-y., 06/17/5216/0187-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(4-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-oktabrdagi PF-5216-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2017-y., 06/17/5216/0187-son)

5. Shunday tartib o'rnatilsinki, bunda:

Oldingi tahrirga qarang.

davlat nomidan O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi va Moliya vazirligi hamda Markaz Kengashi timsolida Markazning mehnat jamoasi Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari (keyingi o'rinlarda — Markazlar)ning muassislari hisoblanadilar;

(5-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-oktabrdagi PF-5216-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2017-y., 06/17/5216/0187-son)

davlatga tegishli mulk ishonchli boshqaruv huquqi bilan Markazning ustav jamg'armasiga topshiriladi;

davlat tomonidan madadga muhtoj bo'lgan shaxslar (imtiyozli toifadagi shaxslar)ga davlat budjeti mablag'lari hisobidan yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatiladi;

Markazning faoliyati davlat budjeti mablag'lari, Markazning o'z daromadlari va jalb etiladigan manbalar (grantlar, homiylarning mablag'lari va boshqalar) hisobiga aralash asosda moliyalanadi. Bunda davlat budjeti mablag'lari har bir Markazga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi orqali xarajat moddalari bo'yicha taqsimlanmagan holda alohida satr bilan ajratiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yilgi respublika budjetlarini shakllantirish chog'ida Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda 2004-yildan boshlab Markazlarning uzog'i bilan 2008-yilda o'zini-o'zi moliyalash va o'zini-o'zi qoplashga o'tishini nazarda tutgan holda ushbu Markazlarni saqlashga budjet mablag'larining joriy xarajatlari bosqichma-bosqich kamaytirib borilishini ko'zda tutsin.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-oktabrdagi PF-5216-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2017-y., 06/17/5216/0187-son)

7. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi, Moliya vazirligi respublika ixtisoslashtirilgan markazlari faoliyatining natijalarini hisobga olgan holda 2006-yilning 1-yanvariga borib Markazlarning ustav jamg'armasiga topshirilgan davlat mulkini imtiyozli shartlar bilan mehnat jamoasiga mulk sifatida sotish to'g'risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga taqdim etsin.

Oldingi tahrirga qarang.

8. Markaz mehnat jamoasining umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadigan Markaz Kengashi Markazning yuqori boshqaruv organi deb hisoblanishi belgilab qo'yilsin.

(8-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-oktabrdagi PF-5216-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2017-y., 06/17/5216/0187-son)

Kengash a'zolari ichidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining taqdimnomasi bo'yicha Hukumat qarori bilan tayinlanadigan direktor Markaz Kengashining raisi hisoblanadi.

9. Markazlarga quyidagi huquq berilsin:

Markazning ustav jamg'armasiga topshiriladigan davlat mulkidan foydalanish va uni boshqarish;

lavozimlar ro'yxatini mustaqil ravishda ishlab chiqish va tasdiqlash, Markaz xodimlarining mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish shartlarini bajariladigan ishlarning murakkablik darajasi, sifati va hajmiga nisbatan tabaqalashtirilgan tarzda belgilash.

10. Quyidagilar tasdiqlansin:

Oldingi tahrirga qarang.

(10-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-oktabrdagi PF-5216-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2017-y., 06/17/5216/0187-son)

Oldingi tahrirga qarang.

yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatuvchi tibbiyot tashkilotlari tomonidan davlat budjeti mablag'lari hisobiga tibbiy yordam ko'rsatiladigan imtiyozli toifadagi shaxslarning [2-ilovaga](#) muvofiq ro'yxati.

(10-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-310-sonli [qarori](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.07.2022-y., 07/22/310/0607-son)

11. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi tashkil qilinayotgan ixtisoslashtirilgan markazlar bilan birgalikda bir oy muddatda belgilangan tartibda quyidagilarni ishlab chiqib, tasdiqlasin:

tashxis va davolash sifati standartlariga rioya etgan holda yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha Respublika markazlari tomonidan aholiga pulli xizmat ko'rsatish qoidalarini;

[LexUZ sharhi](#)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 8-iyundagi 264-sonli qarori bilan tasdiqlangan Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari tomonidan tashxis qo'yish va davolash sifati standartlariga rioya qilgan holda aholiga pulli asosda yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish [qoidalariga](#) qarang.

Respublika ixtisoslashtirilgan markazlarini moliyalash tartibi va manbalari to'g'risida Nizom;

[LexUZ sharhi](#)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 8-iyundagi 264-sonli qarori bilan tasdiqlangan Respublika ixtisoslashtirilgan markazlari daromadlarini shakllantirishning asosiy manbalari va ular faoliyatini moliyalashtirish tartibi to'g'risida [nizomga](#) qarang.

ixtisoslashtirilgan markazlar tomonidan pulli tibbiy yordam ko'rsatish uchun tariflarni shakllantirish va tasdiqlash tartibi;

imtiyozli toifadagi bemorlarni davolash haqini davlat budjeti mablag'lari hisobidan to'lash tartibi.

[LexUZ sharhi](#)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 8-iyundagi 264-sonli qarori bilan tasdiqlangan Imtiyozli toifaga kiruvchi bemorlarga order berish, ularni shifoxonaga joylashtirish va davlat budjeti mablag'lari hisobiga davolash qiymatini to'lash [tartibiga](#) qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Markazlarning budget mablag'laridan, tasdiqlangan tariflardan maqsadli va qonuniy foydalanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatsin.

(11-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-oktabrdagi PF-5216-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2017-y., 06/17/5216/0187-son)

12. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda mazkur Respublika ixtisoslashtirilgan markazlarini davolash va tashxis uskunalari, tibbiyot asboblari bilan jihozlash normativlarini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritsin, ana shu normativlar asosida 2003-yildan boshlab respublika investitsiya dasturlarida ularni zamonaviy tibbiyot uskunalari va asboblari bilan to'liq ta'minlash uchun zarur kapital mablag'lar ko'zda tutilsin.

13. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida ushbu Respublika ixtisoslashtirilgan markazlari o'z ehtiyojlari uchun olib kelinadigan tibbiyot uskunalari va asboblari uchun 2003-yilning 1-martidan to 2012-yilning 31-dekabriga qadar 10 yil muddatga barcha turdagi soliqlar, bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imlardan tashqari) to'lashdan ozod qilinsin, bo'shaydigan mablag'lar Markazlarni rivojlantirish va jihozlashga maqsadli tarzda yo'naltirilsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi Respublika ixtisoslashtirilgan markazlari va boshqa manfaatdor tuzilmalar bilan birgalikda 2003-yilda amalga oshiriladigan tajriba tahlili natijalari bo'yicha Markazlarning normativ bazasini, ular faoliyatini tashkil etish va moliyalash tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga aniq takliflar kiritsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda amaldagi qonunchilikka ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga taqdim etsin.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda mazkur Farmonni ijro etish yuzasidan Hukumat qarorini qabul qilsin.

[LexUZ sharhi](#)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 17-martdagi 140-sonli "Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 8-iyundagi 264-sonli "Sog'liqni saqlash tizimida eksperimentni tugallash va islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlariga qarang.

17. Ushbu Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri O'. T. Sultonov zimmasiga yuklatilsin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
2003-yil 26-fevral,
PF-3214-son

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-oktabrdagi PF-5216-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2017-y., 06/17/5216/0187-son)

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining
2003-yil 26-fevraldagi
PF-3214-son Farmoniga
2-ILOVA

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatuvchi tibbiyot tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobiga tibbiy yordam ko'rsatiladigan imtiyozli toifadagi shaxslar

RO'YXATI

(2-ilova nomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-310-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.07.2022-y., 07/22/310/0607-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

1. Bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar;

(1-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-26-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son)

2. Chin yetimlar;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

3. I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar;

(3-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-26-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

4. 1941 — 1945-yillardagi urush oqibatida nogiron bo'lgan shaxslar va uning qatnashchilari, shuningdek, ularga tenglashtirilgan shaxslar;

(4-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-26-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son)

5. Yoshga oid pensiyaga chiqqan ishlamaydigan shaxslar;

6. 1941 — 1945-yillardagi urush davrida mehnat jabhasining qatnashchilari;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

7. Chernobil AESi falokatini tugatishda ishtirok etgan shaxslar jumlasiga kiruvchi nogironligi bo'lgan shaxslar;

(7-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-26-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son)

8. Baynalmilalchi-jangchilar;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

9. Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali kam ta’minlangan deb e’tirof etilgan oilalarning a’zolari.

(9-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-avgustdagi PF-6277-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.08.2021-y., 06/21/6277/0788-son) — 2021-yil 1-sentabrdan kuchga kiradi)

10. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha, 18 yoshga to‘lmagan patologiyali bolalar;

11. Chaqiruv komissiyalarining yo‘llanmalari bo‘yicha chaqiruv yoshidagi (18 — 27 yoshdagi) shaxslar;

12. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha, patologiyali homilador ayollar¹;

13. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha, endokrin kasalliklariga chalingan bemorlar²;

14. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha, jinsiy yo‘l bilan yuqtiriladigan kasalliklarga chalingan shaxslar³;

15. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha, sil kasalligiga chalingan shaxslar⁴;

16. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha, onkologiya kasalliklariga chalingan shaxslari⁵.

Oldingi tahrirga qarang.

17. Dasturli gemodializ oluvchi bemorlar.

(17-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-310-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.07.2022-y., 07/22/310/0607-son)

1) Tibbiy yordam Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida ko‘rsatiladi;

2) Tibbiy yordam Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida ko‘rsatiladi;

3) Tibbiy yordam Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida ko‘rsatiladi;

4) Tibbiy yordam Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida ko‘rsatiladi.

5) Tibbiy yordam Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida ko‘rsatiladi.

(2-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-oktabrdagi PF-5216-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.10.2017-y., 06/17/5216/0187-son)

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-y., 2-son, 16-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005-y., 28-29-son, 204-modda; 2006-y., 40-son, 394-modda; 2010-y., 17-son, 130-modda; 2013-y., 36-son, 477-modda; 2017-y., 13-son, 198-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.10.2017-y., 06/17/5216/0187-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.08.2021-y., 06/21/6277/0788-son, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son; 08.07.2022-y., 07/22/310/0607-son)